Loyixa-smeta xujjatlarini bajarishga doir

# №- 105 PUDRAT SHARTNOMASI

**2022 yil «03» июн** **Paxtaobod tuman**

Kelgusi O'rinlarda «Buyurtmachi» - deb yuritiluvchi Paxtaobod tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabi nomidan, xarakatdagi Nizom asosida xarakat qiluvchi direktori Х.Хайдаркулоев bir tomondan, xamda kelgusi o'rinlarda «Pudratchi» - deb yuritiluvchi «TAMIRLOYIHA» MChJ korxonasi nomidan Ustav (yoki Nizom)asosida xarakat qiluvchi, korxona direktori И.Мадаминов, ikkinchi tomondan, Paxtaobod tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabiga qarashli markaziy o'yingoxda amalga oshirilgan ishlar uchun smeta xujjatlarini tayyorlashga pudrat shartnomasini tuzadilar:

## 1.Shartnomaning mazmuni:

1.1. «Pudratchi»: Paxtaobod tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabiga qarashli markaziy o'yingoxda amalga oshirilgan ishlar uchun smeta xujjatlarini tayyorlash berish majburiyatini, «Buyurtmachi» esa uz vaqtida qabul qilib, ishlar xaqini to'lash majburiyatini oladilar.

1.2. ***«Pudratchi», «Buyurtmachi» tomonidan takdim etilgan me'moriy rejalashtirish (APZ), loyixalash topshiriklarida ko'rsatib o'tilgan ishlarni «Korxona, bino va inshoatlar qurilishiga loyixa-smeta xujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» xaqidagi ShNK 1.03.01-03 koida va kullanmalari va mazkur shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.***

1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshka talablar, texnik shartlarda nazarda to'tiladi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

1.4. Ishlarning aloxida bosqichlarining ro'yxati va bajariladigan muddati kalendar reja asosida aniqlanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

1.5. ***«Pudratchi», «Buyurtmachi»ning ruxsatini kutmasdan, qo'shimcha ichki xo'jalik shartnomasini (Shartnomada belgilanmagan, lekin mazkur shartnomani bajarishda amalga oshirilishi lozim bulgan maxsus tadqiqot ishlariga) tuzishga xaqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish «Pudratchi» zimmasiga yuklatiladi.***

***1.6.Xo'jalik shartnomasining bajarishdan bosh tortish va shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.***

## Tomonlarning majburiyatlari:

2.1. ***«Pudratchi» ning majburiyatlari:***

- «Buyurtmachi» tomonidan ob'ektni moliyalashtirish masalasi yechilgandan sung ishni to'lik topshirish;
muddati 1 oyda
-«Buyurtmachi» tomonidan berilgan texnik topshirik va boshka boshlangich xujjatlar asosida
-ishlarni bajarish;
-«Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarni (boskichlari)ning natijalarini kelishish;
-mazkur shartnoma buyicha bajariladigan ishlar xaqida «Buyurtmachi»ga axborot berib boradi.
- mazkur shartnoma asosida bajarilgan ishlarni «Buyurtmachi»ning ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga xaqli emas.

2.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

- mazkur shartnomada nazarda to'tilgan mikdorda va shartlarda belgilangan narxni uz vaqtida to'lash;
- «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ishlarni, mazkur shartnomada nazarda to'tilgan shartlarda bajarilishi nazorat qilish;
- «Pudratchi», bilan bajarilgan ishlar (boskichlar)ning natijalarini kelishish;
- Shartnoma buyicha bajarilgan ishlarni, ularning mazmunini «Pudratchi»ning roziligisiz uchinchi shaxsga bermaslik.

## 3. Shartnoma buyicha ishlarning narxi:

3.1. Mazkur shartnomaning baxosi 600 000 (olti yuz ming) so'mni tashqil etadi

.3,2«Buyurtmachi», «Pudratchi»ga oldindan mazkur shartnomaning umumiy kiymatini 15 foiz 90 000 (to'qson ming ) so'm mikdorida bunak (avans) to'lash majburiyatini oladi. Kolgan 85 foizi 540 000 (besh yuz kirqming) so'mni ish bajarilgandan so'ng to'lanadi.

3.3. «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma imzolangandan sung besh bank kuni davomida «Pudratchi»ning xisob rakamiga 3.2-bandda ko'rsatilgan pul mablagini mazkur shartnoma imzolangandan sung besh kun ichida utkazib beradi. Kolgan mablagni tasdiklangan reja asosida boskichma boskich to'lab beradi.

3.4. «Buyurtmachi», bajarilgan ishlar xaqidagi dalolatnoma takdim qilingan kundan boshlab, besh bank-ish kuni mobaynida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3.5. Mazkur shartnoma buyicha «Pudratchi» tomonidan amalga oshiriladigan ishlar baxosi va muddati uzil kesil xisoblanadi va kayta kurib chiqilmaydi.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi:

Bajariladigan ishlarni baxolash va qabul qilib olish texnik topshirik talablari asosida baxolanadi.

4.2.«Pudratchi» tomonidan topshirilishi lozim bulgan xujjatlar ruyxati texnik topshirikda aniklanadi.

4.3 «Pudratchi» ishlarni bajarib bulgach, «Buyurtmachi»ga texnik topshirikda nazarda to'tilgan xolda, qabul -qilish dalolatnomasi bilan birga uch nusxada xujjatlar tuplamini takdim etadi.

4.4. «Buyurtmachi», mazkur shartnomaning 4.2 -bandida ko'rsatilgandek topshirish-qabul qilish dalolatnomasini xisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 30 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va «Pudratchi»ga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish - qabul - qilish dalaolatnomasini junatadi. Topshirish - qabul-qilish dalolatnomasi «Buyurtmachi» tomonidan imzolanmasa, bajarilgan ishlarni, xizmatlarni qabul qilishda asosli e'tiroz bildirilmagan xollarda «Pudratchi», yukorida ko'rsatilgan muddatda, bankka bir tomonlama bajargan ishlar evaziga xaq to'lash uchun talab kuyishga xaqli.

4.5.Bajarilgan ishlarni topshirish - qabul-qilish davomida «Buyurtmachi»ning asosli e'tirozi bulsa, kamchiliklarning ruyxati va ularni bartaraf etishning anik muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida keyinchalik uni davom ettirish maksadga muvofik emasligi ma'lum bulib kolsa, tomonlar besh kun mobaynida bir-birlarini ishlar tuxtatilganligi xaqida xabardor qilishlari shart va un kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maksadga muvofik bulgan yunalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni kurib chiqishlari kerak. Ishlar tuxtatilgan xollarda, tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda to'tilgan majburiyatlar yuklanadi.

4.7.O'zaro xisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni tuxtatish xaqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

## 5. Tomonlarning javobgarligi.

5.1. «Buyurtmachi» uz vaqtida oldin to'lanishi lozim bulgan to'lovlarni to'lamagan xollarda, ishlarni yakunlash muddati to'lov kechiktirilgan muddatga uzaytiriladi.

5.2. To'lov talabnomasi aktsepti (qabul qilish)ni asossiz ravishda to'la yoki kisman rad etganlik shuningdek xisob-kitoblarning boshka shakllardagi ishlarga xaq to'lashdan bosh tortganligi (bank muassasasiga to'lov topshiriknomasini takdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv bermaslik va xaqozo) uchun, «Buyurtmachi» to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,5 % xajmida «Pudratchi»ga jarima to'laydi.

5.3. «Buyurtmachi» olgan majburiyatini buzmaslik uchun, mazkur shartnomaning 4.4-moddasiga asosan, u «Pudratchi»ga utkazib yuborilgan xar bir kun uchun, majburiyatning bajarilmagan kismining 0,5 foiz xajmida penya to'laydi. Ammo bunda, penyaning umumiy mikdori bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.4. «Pudratchi», ishlarni bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligini uchun, u «Buyurtmachi»ga utkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan majburiyatning 0,5 foiz xajmida penya to'laydi. Ammo bunda, penyaning umumiy summasi, bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak. Penya to'lash shartnoma majburiyatini buzgan tomon, kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati okibatida keltirilgan zararni koplashdan ozod etmaydi.

5.5. Bajarilgan ishlar(boskichlar)da kamchilik va nuksonlar paydo bulganda «Pudratchi» ularni bartaraf etish majburiyatini oladi.

5.6. Agar, «Pudratchi» utgan boskich uchun xisobot bermasa, keyingi boskich uchun moliyalashtirish ishlari tuxtatiladi.

5.7. Agar, topshirilgan ishlar yengib bulmaydigan xolatlar (Fors major) natijasida yuzaga kelsa, tomonlar uz xarakatlarida Uzbekiston Respublikasi konunchilik me'yorlari asosida ish kuradi.

5.8. Agar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilagan xizmatlar shartnoma shartlariga mos kelmasa, «Buyurtmachi» bajarilgan ishlardan bosh tortishga xaqli. «Pudratchi»dan shartnoma shartlariga mos kelmaydigan ish kiymatining besh foizi mikdorida jarima undirishga, agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga xaq to'lab kuyilgan bulsa, belgilangan tartibda to'langan summani kaytarishni talab qilishga xaqli. Jarima jadvalining to'lov talabnomasi bank muassasiga sifati lozim darajada bulmagan ishlar xaqida dalolatnoma tuzilgan vaqtdan boshlab bir oy mobaynida takdim qilinishi lozim. Jarima jadvalining to'lov talabnomasi belgilangan bir oylik muddatdan keyin takdim etilsa, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar, shartnomada uzgacha kuzda to'tilmagan bulsa Uzbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisida»gi konunning 25-32 moddalariga asosan javobgarlik choralari kullaniladi.

## 6. Fors-major xolati.

6.1. Agar, tomonlar majburiyatlarining kisman yoki to'la ijro etilmay kolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshka bartaraf etilib bulmaydigan boshka kuchlar sababli sodir bulgan bulsa, xamda bu xolat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bulsa, tomonlar mazkur shartnoma buyicha majburiyatlarining kisman yoki to'la ijro etilmay kolgani uchun javobgarlikdan ozod buladilar. Mazkur shartnoma buyicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bulmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chikargan okibat davom etgan vaqtga mos ravishda orkaga suriladi.

6.2. Agar bartaraf etilib bulmaydigan kuch vaziyati yoki okibatlari uch oydan ortik vaqtga chuziladigan bulsa, «Pudratchi» va «Buyurtmachi» ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga tuxtatish chora-tadbirlar kurishni muxokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir tuxtamga kela olmasalar, tomonlarning xar kaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

6.3. «Buyurtmachi» to'lov shartlarini uz vaqtida bajarmasligi «Pudratchi» uchun «Fors-major» xolatiga teng xisoblanadi.

## 7. Qo'shimcha shartlar:

7.1. «Buyurtmachi» 1.1-bandda ko'rsatilgan maksadga muvofik, «Pudratchi» tomonidan takdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas, «Pudratchi» esa olingan ish natijalaridan uzining manfaatlari uchun foydalanishi takiklanadi.

7.2. Mazkur shartnomada kuzda to'tilmagan munosabatlar Uzbekiston Respublikasining «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisida»gi konuniga, xamda Uzbekiston Respublikasi fukarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

## 8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari:

8.1. Mazkur shartnoma, tomonlar imzo chekkan kundan kuchga kiradi va uning shartlari to'la bajarilgunga kadar amalda buladi.

8.2.Mazkur shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan sung xam tomonlar shartnoma shartlarini buzganliklari javobgarligidan ozod etilmaydi.

8.3. Mazkur shartnomani amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha

8.4. Shartnoma 2 nusxada tuzildi.

### 9. Nizolarni xal etish tartibi:

9.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, uzgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni koplash chogida tomonlar urtasida vujudga kelishi mumkin bulgan nizo va kelishmovchiliklar Uzbekiston Respublikasining konunchiligida belgilangan tartibda xujalik sudi tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga binoan, xakamlar sudi tomonidan xal etiladi.

## 10. Tomonlarning rekvizitlari:

| «PUDRATCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| "TA'MIRLOYIHA" MCHJ | Болалар Усмирлар спорт мактаб. |
| **Manzil: Andijon shaxri A.Temur 2-A uy.** | Пахтаобод тумани Гузор МФЙ |
| **X/r: 2020 8000 2019 5220 4001 MFO: 000 68** | х/р: 401722860032327083610135001 |
| **Bank nomi: Ipoteka bank Istiqlol filiali** | Пахтаобод тумани Агро банк |
| **INN : 200 230 698 Okonx 66 000** | ИННИ 203350579 |
| | МФО 00034 |
| | Банк: марказий банк. |
| **Rahbar:** [signature] **X.M.Madaminov** | |
| **M.У.** | **M.У.** [signature] Р. Ҳамзақулов |

Э. Нигуров [signature] Юрист.